

Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Qodirov Daler tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: JDPI, o‘qituvchi Xolmurodov Dilshod

Amir Temur hokimiyat tebasiga kelganida Turkistonda notinchlik, vayronagarchilik, tartibsizliklar, qashshoqlik, nochorliklar hukm surib, mamlakat parokanda, aholi nochor butunlay holdan toygan bir payt edi. Hunarmandchilik ishlab chiqarish kamaydi, mamlakat ichkarisida va tashqarisidagi shahar va qishloqlararo o‘zaro savdo aloqalari qisqarib ketdi. Sug‘orish ishlari inqirozga yuz tutdi, qishloq xo‘jaligi mahsuldarligi darajasi keskin kamayib ketdi. Amir Temur noyob aql-zakovat sohibi bo‘lib, kuchli bilim egasi edi. Shu boisdan u dastlab o‘z siyosatini birinchi navbatda ishni tartib o‘rnatishdan boshlab, yurt tinchligini ta‘minlashdan, dehqonchilikni, hunarmandchilikni va tijoratni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratdi.

Amir Temur o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun dastlabki farmonlardan biri yo‘llardagi xavfsizlik, pochta, qatnov vositalarini ta‘minlash, qo‘shinlar yurishi, janglar oqibatida harob bo‘lgan yerlarni obod qilish, rabotlar (mehmonxonalar, to‘xtash joylari), xonaqohlar qurish, kambag‘al va miskinlar uchun xayrxonalar ochish haqida so‘z ketgan. Ilm-fan rivoji uchun yo‘l ochadi, talabalarga kattadan-katta stipendiyalar tayin etishni buyuradi.¹ Bu bilan u uzoq yillar davomida mamlakat hayotini qamrab olgan jamiyat taraqqiyoti va istaklariga zid bo‘lgan jarayonga chek qo‘ylgani va bundan buyongi hayot jamiyatining turli talablari manfaatida qurilishini bildirgan.

V.V.Bartold Amir Temur faoliyatini shunday tasvirlaydi: “Temur bir paytda beshafqat vayronkor va jonboz quruvchi edi; uning tomonidan ajoyib bog‘-rog‘lari bilan muhtasham binolar qurildi, shahar va qishloqlar tiklanadi, sug‘orish jixozlari barpo etildi va tuzatildi; rasmiy tarixning ifoda etishigacha umuman ekin yetishtirish mumkin bo‘lgan yer bekor yotmagan”.² Uning o‘g‘li Shohrux va nabirasi Ulug‘bek bu siyosatni davom ettirishga harakat qildi.

Dehqonchilik sohasida, Temur farmoyishiga ko‘ra yerlarni sug‘orishga bog‘liq ishlar amalga oshirildi va Angor tumani tashkil topdi. Uning ko‘rsatmasi bilan Murg‘ob vodiysida muhim ishlar bajarildi. Eski Angor kanalining tog‘ maydoni o‘yib qazilgani sezilarli rol o‘ynadi.³ Boshqa sug‘orish ishlarining o‘tkazilishi Temur faoliyati bilan bog‘liq.

¹ Jomiy, Zafarnoma, 2-jild. 188-189 – betlar.

² Bartol'd V.V. Ulugbek i yego vremya. Soch., tom 11, ch.2. M.1964, s.60-61

³ Temur va Ulug‘bek. T., 1996 yil, 117-bet.

Tarixchilarning guvohlik berishicha Turkistonning serhosil vodiylaridagi dehqonchilikda turli donli ekinlar yetishtirilgan, asosan bug‘doy ekilgan.

Temur va temuriylar davrida Turkistonda texnik ekinlardan paxta muhim o‘rin tutgan. Baxta, Samarqand, Balx atrofi, Shaxrisabz yaqinidagi yerlarda va boshqa joylarda yetishtirilgan. Paxtadan ip-gazlama tayyorlanishi, shuningdek, ko‘pchilik hunarmandlarning muayyan gazlama turi tayyorlanishiga ixtisoslashgan bu ekinni hamma joyda yetishtirish kengayganidan dalolat beradi.

Amir Temurning soliq siyosati tuzumi ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, yangi yerlarni o‘zlashtirigan dehqon ikki yilga soliqdan ozod qilingan. Foydalanimagan tashlandiq yerlarni ekinzorlarga aylantirmoqchi bo‘lgan kambag‘allarga ot-ulov, omoch-xo‘kizlar ijaraga berilgan. Shuningdek, Amir Temurning soliq siyosatidan o‘rnak olsa arzigulik tomonlaridan yana biri – dehqonlardan olinadigan soliqlar bir muncha kamroq bo‘lgan. asosiy soliq ushr bo‘lib, hosilning o‘ndan biriga (10%) teng bo‘lgan. chig‘ir bilan sug‘oriladigan yerlarda yarim ushr (5%) soliq solingan. Shahar aholisi va shahar atrofi aholisidan boj olinmagan. Ularga har xil yengilliklar berilgan. Iqtisodiy rag‘batlantirishga katta e’tibor berilgan. Soliqlar ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab natural (maxsulot) va pul shaklida undirilgan.⁴

Temur hukmdorligi davrida ilk bor zig‘ir ekish paydo bo‘ldi. Klavixo xabar berishicha Temur yurishi davrida Turkistonga zig‘ir ekila boshlagan. “Mazkur ekin ilgari bu yerda sira ekilmagan”, deb yozadi Rui Gonsales de Klavixo.⁵

Qishloq xo‘jaligida poliz ekinlari katta o‘rin tutgan, ular “butun dunyoga eng yaxshi va eng mo‘l-ko‘l deb hisoblangan. Movarounnahrning hech bir yerida Buxorochalik ko‘p va a’lo qovun yetishtirilmagan”, deb yozgandi keyinchalik Bobur. “Miri Temur deb atalgan va Buxoronikidan shirinroq hisoblangan qovun navining yetishtirilishi, ehtimol Temur nomi bilan bog‘liqdir. “Farg‘ona Axsisida “Miri Temur” nomli, Buxoronikidan totli va nafis qovun navi bor”, deb yozadi Bobur. Xorazm qovunlari, ayniqsa ko‘k tarnay navi juda ajoyib bo‘lgan.

Tut daraxti asosan ipak qurtlarini boqish uchun ekilgan. Shaharning to‘qimachilik mahallalari va guzarlarida, ularga yaqin joylarda pillakashlar, kalavachilar hamda mato va kalavalarga bo‘yoq beruvchi nilchi rangrezlar, chitga gul bosuvchi muhrkash va chitgarlar ham istiqomat qilganlar. Shoyi matolar va zangori duxobalardan zarbop liboslar tikilgan. Shoyi matolar va zardo‘zi buyumlar zeb-ziynatlar darajasida qadrlanar va ulardan, asosan saroy ayonlari va mulkdor tabaqa vakillari kiyinar va foydalananardi. Podsho va sultonlar elchilar orqali bir-birlariga boshqa buyumlar qatori shoyi va nafis ip gazlamalar tuhfa qilganlar.

⁴ Abdullaev S. Ta’zim. T., 1996 yil, 62-bet.

⁵ “Dnevnik...”, s.139.

Qimmatbaho gazmol va buyumlarning bir qismi chet mamlakatlarga olib ketilgan. Samarqandning zardo‘zi liboslari, atlasi va duxobasi hamda Hirotning kimxobi ayniqsa dunyoga mashhur bo‘lgan. bu, shubhasiz, Samarqand to‘qimachilik dastgohlari-yu, to‘qish san'atining yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Samarqand hunarmandchiligidagi aynisa qog‘oz ishlab chiqarish alohida o‘rin tutgan. Shahar yaqinida Obirahmat arig‘i sohilida qog‘oz ishlab chiqariladigan maxsus objuvoz va korxonalar bo‘lgan. bu yerda eskirgan bo‘z kiyim, latta va mos paxtalardan bo‘tqa-qog‘oz xom ashyosi tayyorlanib, varaqlar qo‘yilgan. So‘ngra ularga sayqal berilgan.⁶ Samarqand qog‘ozi O‘rta Sharqi hattotlari orasida g‘oyat mashhur bo‘lib, uning bir qismi birmuncha chetroq o‘lkalarga ham chiqarilgan.

Bu yerda teri oqlash, charm pishirish ham rivojlangan. Charmdan yengsiz kamzul, poyafzal, ot-ulov anjomlari tikilgan. Charm buyum tikuvchilari orasida etikdo‘z, maxsido‘z, kovushdo‘z, egarchi, yuganchi kasblari bo‘lgan. harbiy yurishlarga tayyorgarlik paytlarida sadoq (o‘qdon) charmdan tayyorlangan. Kamonning charm g‘iloflari, pichoq va qilichlarning charm qoplangan qinlariga talab yuqori bo‘lgan.

Turli mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlarning faoliyati to‘g‘risida esa Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Dunyoning barcha iqlimlaridagi o‘lka va mamlakatlaridan kelgan hunarmandlar va ustalar o‘z mamlakatlarining odatlariga ko‘ra turli liboslarda ustaxonalar (faujlar) bo‘yicha xilma-xil zeb-ziynat, chambar va bosh kiyimi ko‘rinishidagi ko‘rkam bezaklar, noyob buyumlar va bayramona liboslar, mato va o‘z sohasining (boshqa) mahsulotlarni tayyorlashda, har bir guruh o‘z mavqeyiga yarasha edi.

Amir Temur va temuriylarning ayrim vakillari farmonga binoan o‘tkazilgan tantana bayramlar tavsifida hunarmand ustalar faoliyatining kasbiy mahorat darjasini yaqqol ko‘rinadi. Hunarmandlar o‘zlaridan kelib chiqib, masalan, nondan ko‘shk, paxtadan minora yasashgan, ko‘chma to‘quv dastgohi ish yerdayoq mato to‘qib bergen.⁷

Temur va Ulug‘bek davrida hunarmandchilikni barcha sohalari yuksak rivojlandi. Hunarmandchilik sohasida to‘qimachilik, kulolchilik, chilangularlik (metalga ishlov berish, metall buyumlar yasash) temirchilik va binokorlik yetakchi o‘rinni egallagan edi. Har bir mahallada hunarmandchilik rivoj topib, uning turli tarmoqlari ixtisoslangan edi. Masalan, zargarlik,sovungarlik, chilangularlik, misgarlik, ko‘pchilik to‘qimachilik singari mahallalarning kasb-korlari bilan nomlangan.

⁶ Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. T., 107-bet.

⁷ Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur. T., 1996 yil, 62-bet.

Ispaniyalik elchi Klavixoning lol qoldirgan sohalaridan biri zardo‘zlik edi. U qimmatbaho matolarni zarrin iplar bilan bezash, olovdek yonib turgan gilmalarga zarrin naqshlar bilan jilo berish hunari, nafis san'at darajasiga yetkazilishiga u tan bergen.⁸

Bu davrda Temur va Ulug‘bek davlati Xitoy, Hindiston, Tibet va boshqa qo‘sni mamlakatlar bilan qizg‘in savdo aloqlari olib borilgan. Chet ellardan turlituman hunarmandchilik mahsulotlari va xom-ashyolar keltirilgan. Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Volga bo‘yi va Sibir' bilan ham mintaqadan savdo-sotiq qilingan. Xitoydan, masalan, ipak, shoyi matolar, xususan, atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar va mushk; Hindistondan nafis oq rangli ip matolar, nil bo‘yoqlar, xushbo‘y ziravorlar (muskat yong‘og‘i, qalampirmunchoq, dolchin va anbar); Erondan surp, marvarid va durlar; Rusiya, Tatariston va Sibirdan qimmatbaho mo‘yna teri va mum olib kelingan. Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar orasida farang gazlamalari, movuti, cherkas pichog‘i bo‘lgan.

Samarqanddan chet mamlakatlarga, xususan, Rusiya, Tatariston va Sibirga asosan arzon narxli ip matolar duxoba, shoyi, qog‘oz, quruq meva, gurunch, paxta va kalava iplar chiqarilgan.⁹

Amir Temur Markaziy Osiyoda kuchli markazlashgan buyuk davlatni vujudga keltirdi. Bu davlat yangi fan va texnika yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirib, butun bir muslimmon dunyosida mashhur bo‘ldi. Amir Temur va temuriylar davridagi qurilgan maqbara, mavzoleyalar asosan qadimgi va hozirda xalqimiz uchun aziz va mu'tabar hisoblanadi.

Shunday qilib, Amir Temurning iqtisodiytni boshqarishdagi o‘ziga xos uslubini, ayniqsa, dehqonchilikni, hunarmandchilikni, soliq tizimini tashkil etishni, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni o‘rganish, ijobjiy tomonidan foydalanish hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida ham juda katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

⁸ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T., 2000 yil, 194-bet.

⁹ Muhammadjonov A. Temur va temuriylar sultanati. T., 1994 yil, 111-bet.